



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Zaripova Sabrina Zafar qizi

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)
“Environmental Law” yo'nalishi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy mexanizmlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Yashil iqtisodiyot sohasidagi milliy qonunchilik hujjatlari, xalqaro tajriba hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur normativ-huquqiy asoslar shakllanganini, biroq hududiy darajada ushbu siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyatini mustahkamlash, ekologik loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish hamda yashil investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, huquqiy mexanizm, ekologik siyosat, mahalliy davlat hokimiyati organlari, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, ekologik boshqaruv, qayta tiklanuvchi energiya.

Аннотация. Исследованы правовые механизмы развития зелёной экономики в Узбекистане, а также вопросы совершенствования деятельности органов государственной власти на местах. Проведён сравнительно-правовой анализ национального законодательства в сфере зелёной экономики, международного опыта и полномочий органов государственной власти на местах. Результаты исследования показывают, что в Узбекистане сформирована необходимая нормативно-правовая база для перехода к зелёной экономике, однако механизмы реализации данной политики на региональном уровне требуют дальнейшего совершенствования. Разработаны научно-практические предложения по укреплению институционального потенциала органов государственной власти на местах, развитию системы финансирования экологических проектов и стимулированию зелёных инвестиций.

Ключевые слова: зелёная экономика, правовой механизм, экологическая политика, органы государственной власти на местах, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, экологическое управление, возобновляемая энергетика.

Abstract. The legal mechanisms for developing a green economy in Uzbekistan and the improvement of the activities of local government authorities are examined. A comparative legal analysis of national legislation on the green economy, international experience, and the powers of local government authorities is conducted. The findings indicate that Uzbekistan has established the necessary regulatory and legal framework for the transition to a green economy; however, mechanisms for implementing this policy at the regional level require further improvement. Scientific and practical proposals are developed to strengthen the institutional capacity of local government authorities, improve financing mechanisms for environmental projects, and promote green investments.

Keywords: green economy, legal mechanism, environmental policy, local government authorities, sustainable development, green investments, environmental governance, renewable energy.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va aholi farovonligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda [1; 2]. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ekologik muammolarni bartaraf etish, qayta tiklanuvchi



energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [3]. Mamlakatning 2030-yilgacha bo'lgan davrda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi [4].

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, mas'uliyati va faoliyat samaradorligi muhim o'rin tutadi. Chunki hududlarda ekologik dasturlarni amalga oshirish, investitsiyalarni jalb etish, yashil texnologiyalarni joriy etish hamda aholining ekologik madaniyatini oshirish ko'p jihatdan mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga bog'liqdir.

Shu bois, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, mavjud normativ-huquqiy bazani tahlil qilish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalalarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning huquqiy mexanizmlari, ularning amaldagi holati hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi so'nggi yillarda barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan keng o'rganilmoqda. Mazkur konsepsiya iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning nazariy va amaliy asoslari qator xalqaro tashkilotlar hamda olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan tayyorlangan "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication" hisobotida yashil iqtisodiyot inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga, ekologik xavflar hamda resurslar tanqisligini kamaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy model sifatida ta'riflangan [5]. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirish ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan "Green Growth" konsepsiyasida iqtisodiy o'sishni tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1; 5]. OECD ekspertlari yashil o'sishni amalga oshirishda davlat boshqaruvi tizimining, ayniqsa, mahalliy boshqaruv organlarining faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar.

Jahon bankining "Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development" tadqiqotida yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida baholanib, iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan [6]. Tadqiqotda davlat siyosati, investitsiyalar va institutsional mexanizmlarning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni alohida ko'rsatib berilgan.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mahalliy boshqaruv organlarining roli masalasi Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi misolida ham keng o'rganilgan. Germaniyada "Energiewende" siyosati doirasida mahalliy hokimiyat organlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik infratuzilmani takomillashtirishdagi faol ishtiroki yuqori natijalarga erishishga xizmat qilgani qayd etiladi [5; 2]. Janubiy Koreyada esa "Low Carbon, Green Growth" strategiyasi asosida mahalliy boshqaruv organlariga keng vakolalar berilishi ekologik innovatsiyalarni joriy etish va hududiy ekologik loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy mexanizmlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari kompleks ravishda o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga oid ilmiy qarashlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va milliy qonunchilik hujjatlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tarkibiy, mantiqiy-huquqiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Formal-yuridik usul yordamida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-son¹ Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son² qarori hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-son Qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-4346831>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4539502>



1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ekologiya kodeksi, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentning 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi asosida tuzildi

№	Normativ-huquqiy hujjat	Asosiy mazmuni	Mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun ahamiyati
1	"2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"	Yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.	Hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga asos bo'ladi.
2	"Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni tartibga soladi.	Mahalliy loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.
3	Ekologiya kodeksi	Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.	Mahalliy ekologik nazorat va boshqaruv vakolatlarini belgilaydi.
4	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Fuqarolarning ekologik huquqlari va davlat organlarining majburiyatlarini belgilaydi.	Mahalliy hokimiyat organlarining ekologik mas'uliyatini mustahkamlaydi.

Qiyosiy-huquqiy usul asosida Yevropa Ittifoqi davlatlari, Germaniya va Janubiy Koreyaning yashil iqtisodiyot sohasidagi huquqiy tajribasi o'rganildi. Tizimli-tarkibiy tahlil yordamida yashil iqtisodiyotning huquqiy mexanizmlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq etildi. Shuningdek, davlat organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ilmiy adabiyotlar umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mahalliy boshqaruv organlarining roli turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqot doirasida O'zbekiston, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilindi (1-rasm).



YASHIL IQTISODIYOT VA MAHALLIY BOSHQARUV: O'ZBEKISTON, GERMANIYA VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI



KO'RSATKICH	O'ZBEKISTON	GERMANIYA	JANUBIY KOREYA
Yashil iqtisodiyot bo'yicha asosiy huquqiy hujjat	2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (PQ–4477)	Energiewende siyosati va federal ekologik qonunchilik	Low Carbon, Green Growth Act (2008)
Mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari	Hududiy ekologik dasturlarni amalga oshirish va nazorat qilish	Federal yerlar va munitsipalitetlar mustaqil ekologik siyosat yuritadi	Mahalliy hokimiyatlar yashil transport va energiya loyihalarini boshqaradi
Moliyalashtirish mexanizmi	Asosan davlat byudjeti va markazlashgan mablag'lar	Mahalliy byudjetlar hamda ekologik fondlar hisobidan	Davlat grantlari, mahalliy byudjet va xususiy investitsiyalar
Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirishdagi ishtiroki	Hududiy loyihalarni amalga oshirish bosqichida	Mahalliy organlar mustaqil dasturlar ishlab chiqadi va moliyalashtiradi	Mahalliy darajada energiya samaradorligi dasturlarini amalga oshiradi
Ekologik boshqaruv samaradorligi	Rivojlanish bosqichida	Yuqori	Yuqori
Asosiy ustunlik	Huquqiy baza shakllantirilgan	Moliyaviy va institutsional mustaqillik yuqori	Innovatsion ekologik boshqaruv va davlat ko'magi
Mavjud muammo	Moliyaviy mustaqillik va investitsiya imkoniyatlari cheklangan	Yuqori xarajat talab qiluvchi ekologik siyosat	Yuqori texnologiyalarni doirimiy moliyalashtirish zarurati

1-rasm. O'zbekiston, Germaniya va Janubiy Koreyada yashil iqtisodiyot sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining qiyosiy tahlili³

3 World Bank (2024), Ember Global Electricity Review (2025), OECD (2023) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Germaniya yashil iqtisodiyot va ekologik boshqaruv sohasida ilg'or davlatlardan biri hisoblanadi [1; 5]. Mamlakatda federal yerlar (Länder) va munitsipal boshqaruv organlari ekologik siyosatni amalga oshirishda keng vakolatlarga ega. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mahalliy organlar mustaqil dasturlar ishlab chiqish va ularni moliyalashtirish imkoniyatiga ega. Germaniyaning "Energiewende" siyosati doirasida mahalliy hokimiyatlarning faol ishtiroki qayta tiklanuvchi energiya ulushining oshishiga xizmat qilgan [4].

Janubiy Koreyada 2008-yildan boshlab "Low Carbon, Green Growth" strategiyasi amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiya doirasida mahalliy boshqaruv organlariga yashil transport tizimlarini joriy etish, energiya tejamkor infratuzilmani rivojlantirish va ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim vakolalar berilgan. Davlat tomonidan hududiy ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi mahalliy tashabbuslarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [4].

O'zbekistonda esa yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha huquqiy asoslar 2019–2030-yillarga mo'ljallangan strategiya asosida shakllantirilmoqda [4]. Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududiy ekologik dasturlarni amalga oshirish, ekologik muammolarni bartaraf etish va yashil texnologiyalarni joriy etishda faol ishtirok etmoqda [1; 8]. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi bilan taqqoslaganda, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligini yanada mustahkamlash hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbollari mavjud (2-rasm).

ASOSIY KO'RSATKICHLAR: O'ZBEKISTON, GERMANIYA VA JANUBIY KOREYA (2024)

KO'RSATKICH	 O'ZBEKISTON	 GERMANIYA	 JANUBIY KOREYA	 MANBA
 Qayta tiklanuvchi energiya elektr ishlab chiqarishdagi ulushi (%)	16,3%	58,0%	10,6%	 Ember, Fraunhofer ISE, IEA.
 CO ₂ emissiyasi (tonna/jon boshiga)	4,7	6,7	11,3	 World Bank
 Aholi soni (mln kishi, 2024)	37,5 mln kishi	84,4 mln kishi	51,7 mln kishi	 World Bank
 YIM (mlrd AQSH dollari, 2024)	115 mlrd \$	4 700 mlrd \$	1 870 mlrd \$	 World Bank

2-rasm. O'zbekiston, Germaniya va Janubiy Koreyada yashil iqtisodiyotning ayrim statistik ko'rsatkichlari⁴

Germaniyada elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 58,0 % ni tashkil etib, O'zbekiston (16,3 %) va Janubiy Koreya (10,6 %) ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqoridir. Bu mahalliy boshqaruv organlarining ekologik siyosatni amalga oshirishdagi faol ishtiroki hamda samarali moliyaviy va institutsional mexanizmlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Janubiy Koreyada YIM hajmi yuqori (1870 mlrd AQSH dollari) bo'lishiga qaramay, qayta tiklanuvchi energiya ulushining mavjud ko'rsatkichi mamlakat energetika tizimining o'ziga xos tuzilishini aks ettiradi. O'zbekistonda esa qayta tiklanuvchi energiya ulushining o'sib borayotganligi yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki ijobiy natijalarini ifodalaydi.

CO₂ emissiyasi ko'rsatkichlari ham davlatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi. Germaniyada sanoat hajmining kattaligi sababli jon boshiga emissiya 6,7 tonnani, Janubiy Koreyada esa 11,3 tonnani tashkil etadi.

4 Muallif ishlanmasi



O'zbekistonda bu ko'rsatkich 4,7 tonna atrofida bo'lib, yashil iqtisodiyot siyosatini izchil rivojlantirish orqali uni yanada kamaytirish imkoniyati mavjud.

Mazkur statistik tahlil O'zbekistonda yashil iqtisodiyot bo'yicha huquqiy asoslar yaratilganini hamda qayta tiklanuvchi energiya ulushi va yashil investitsiyalarni jalb etish ko'rsatkichlarini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yashil iqtisodiyot sohasidagi vazifalari va vakolatlarini amaldagi qonunchilikda yanada aniqroq belgilash maqsadga muvofiq.
- Hududlarda ekologik loyihalarni samarali moliyalashtirish uchun ekologik fondlar faoliyatini rivojlantirish hamda ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish zarur.
- Yashil iqtisodiyot sohasiga investitsiyalarni ko'proq jalb qilish maqsadida mahalliy hokimiyatlarning investorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.
- Hududiy ekologik dasturlar ijrosini yanada shaffof va samarali tashkil etish uchun zamonaviy raqamli monitoring tizimlari hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini keng joriy etish lozim.
- Germaniya va Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologik boshqaruvdagi faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining institutsional salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan formal-yuridik tahlil natijasida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha zarur normativ-huquqiy baza, jumladan, "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", Ekologiya kodeksi hamda "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirishning muhim huquqiy asoslarini yaratgani aniqlandi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil Germaniya va Janubiy Koreya tajribasida mahalliy boshqaruv organlariga keng vakolatlar berish, ekologik loyihalarni mustaqil moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratish hamda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish yashil iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslaganda, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, hududiy ekologik fondlar faoliyatini rivojlantirish va yashil investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi.

Statistik tahlil natijalari ham O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichlari so'nggi yillarda o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu ijobiy tendensiyani yanada jadallashtirish uchun huquqiy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni izchil takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologik boshqaruvdagi vakolatlarini kengaytirish, hududiy ekologik dasturlarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va davlat-xususiy sheriklik asosida yashil investitsiyalarni rag'batlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining yashil iqtisodiyot sohasidagi vakolatlarini aniq belgilovchi huquqiy normalarni takomillashtirish;
- hududiy ekologik fondlarni shakllantirish va ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish;
- qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish;
- mahalliy darajada ekologik monitoring va jamoatchilik nazorati tizimini rivojlantirish;
- xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar ishtirokida yashil investitsiyalarni jalb etish bo'yicha huquqiy rag'batlantirish choralari kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga oid keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Green Growth Indicators 2023*. – Paris: OECD Publishing, 2023.



2. United Nations Environment Programme (UNEP). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. – Nairobi: UNEP, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4346831>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4477-son qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/-4539502>
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Towards Green Growth*. – Paris: OECD Publishing, 2011.
6. O'zbekiston Respublikasining Ekologiya kodeksi.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: yangi tahriri 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – URL: Lex.uz.
8. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. – Washington, DC: World Bank, 2012.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>